

## **Dars maqsadi: Umumiy maqsad:**

**Annotatsiya:** “Bizning xulqimiz” g‘oyasi doirasida o‘quvchilarga insonning odobi, o‘zini tutishi, gapirishi, boshqalar bilan munosabatlari Vatan sha’ni va jamiyat ravnaqi uchun muhim ekanligi tushuntiriladi. Davlat mustaqilligi, milliy qadriyatlar va Yangi O‘zbekiston yoshlaridan kutilayotgan yaxshi xulq namunalariga urg‘u beriladi. Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlarga oid nutqlaridan olingan oddiy va tushunarli fikrlar bola tilida izohlanadi.

---

### **Aniq maqsadlar:**

1. O‘quvchilarga **yaxshi xulq** va **yomon xulqning** farqini tushuntirish.
  2. Kundalik hayotdagi odobli, halol, hurmatli, toza, mas’uliyatli xatti-harakatlarga rag‘batlantirish.
  3. Milliy qadriyatlar (kattaga salom berish, so‘zga qulq solish, barchaga hurmat ko‘rsatish) orqali yaxshi xulqni mustahkamlash.
  4. “Kichik ish – katta foyda” tamoyilini bolalar tilida tushuntirish (masalan, sinfni yig‘ishtirish, navbatchilikni ado etish, yordam qo‘lini cho‘zish).
  5. “Men yaxshi xulqli bo‘lsam, jamiyat ham go‘zal bo‘ladi” degan ishonchni uyg‘otish.
- 

### **Asosiy g‘oyalar:**

Yaxshi xulq – bu faqat qoidalar to‘plami emas, balki insonning ichki go‘zalligi. Odamning gap-so‘zi, yuz ifodasi, kiyinish uslubi, muomala madaniyati – barchasi uning xulqidan dalolat beradi. Yaxshi xulq oilada, mакtabda, ko‘chada ham bir xil bo‘lishi kerak. Yomon xulq – bu faqat boshqalarga emas, o‘zimizga ham zarar keltiradi. Prezident Sh.M. Mirziyoyev aytganidek: “*Yoshlarimiz tarbiyasi – kelajagimizning poydevori.*”

---

### **✓ Darsdan keyin kutiladigan natijalar:**

#### **1. Aqliy va tushunchaviy darajada:**

- “Xulq”, “odob”, “muomala” tushunchalarini farqlab ayta oladi.
- Yaxshi va yomon xatti-harakatlarga misollar keltira oladi.
- Jamiyat va Vatan taraqqiyotida yaxshi xulqning o‘rnini tushunadi.

#### **2. Hissiy va qadriy yondashuvda:**

- Hurmat, minnatdorlik, mehr-muhabbat hissi ortadi.
- Yaxshi xulq qilishdan zavq olish odati shakllanadi.

### **3. Amaliy ko‘nikmalarda:**

- O‘quvchi kundalik hayotidagi kichik yaxshi ishlarga (sinf tozaligi, navbatchilik, yordam berish) e’tibor qaratadi.
- O‘z odobini kuzatib, yomon odatlardan tiyilishga harakat qiladi.

### **4. Ijtimoiy-pedagogik jihatdan:**

- Sinfda o‘zaro hurmat va yordam muhiti mustahkamlanadi.
- Fuqarolik mas’uliyatining dastlabki shakllari rivojlanadi.

---

**Metapredmet:** bu ta’limda o‘quvchilarning faqat bir fan doirasida emas, **turli fanlar, hayotiy vaziyatlar va ijtimoiy muhitda qo‘llay oladigan umumiyo‘ko‘nikmalarini** shakllantirishga qaratilgan yondashuvdir.

**Masalan, “Bizning xulqimiz” darsida:**

- Bola Xulq haqida **hikoya va maqol aytadi** (adabiy fan),
- Videolavha tomosha qilib, **taassurotini aytadi** (san’at),
- Hayotiy vaziyatlardan xulqiy yechim topadi va bu haqida **fikr bildiradi** (muloqot),  
— bu esa **metapredmet yondashuvining namunasidir**.

**Dars hamkori:** Qori Niyoziy nomidagi milliy tarbiya instituti xodimlari.  
[www.milliytarbiya.uz](http://www.milliytarbiya.uz)

 **Dars davomiyligi:** 45 daqiqa.

**Tavsiya etilgan mashg‘ulot shakli:** bilim beruvchi suhbat, video parchalar, o‘yin elementlari va qo‘srimcha materiallardan foydalanishni nazarda tutadi.

 **Materiallar to‘plami:**

- ssenariy;
- uslubiy tavsiyalar;
- videomateriallar;
- interaktiv topshiriqlar;
- taqdimot.

## Dars tuzilishi 1 qism. Motivatsion

Darsning birinchi qismining maqsadi - o‘quvchilarining mavzu muhokamasida faol ishtirok etishlari uchun sharoit yaratishdir. O‘rta sinf o‘quvchilarining kelgusi faoliyatiga bo‘lgan motivatsiya mashg‘ulot mavzusini aks ettiruvchi materialni ko‘rish va muhokama qilishga asoslanadi.

### 2-qism. Asosiy

Asosiy qismda o‘quvchilar darsning asosiy ma’nolarini tushunish va ochib berishga yo‘naltiriladi. Shu maqsadda o‘quvchilarga:

1. **Xulqiy vaziyatlar tahlili** (Guruhsida):
  - Har bir guruhgaga vaziyat tarqatiladi (masalan, sinfda axlat tashlandi, navbatchi yordam so‘radi, do‘st yiqildi).
  - Guruhsiga yaxshi va yomon yechimlarni topib, sinfga aytadi.
2. **Maqollar musobaqasi:**
  - O‘quvchilar navbatma-navbat xulq-odob haqidagi maqollarni aytadi.
3. **Prezident fikridan parcha:**
  - O‘qituvchi Sh.M. Mirziyoyevning yoshlarga oid qisqa fikrini o‘qiydi va bolalar undan qanday xulosa chiqarganini aytadi.

### 3-qism. Yakuniy

Dars g‘oyalarini umumlashtirish, mashg‘ulotga yakun yasash.